



The use of metaphors and similes as a result of the determinization of terminological meanings

Khushnoza ABDUVOKHIDOVA ¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

metaphor,
simile,
determinization,
figurative meaning,
linguistic metaphor,
personification,
synesthesia,
agricultural terminology,
stylistics,
lexical semantics,
Uzbek language,
English language.

ABSTRACT

This article analyzes figurative meanings in linguistics, particularly metaphors and similes, through the lens of the phenomenon of determinization. The author explains various types of metaphors—such as simple metaphors, personification, and synesthesia—using illustrative examples. Special attention is given to the figurative use of agricultural terminology and its role in enhancing linguistic expressiveness. The paper also examines similarities and differences between metaphorical expressions in Uzbek and English. It explores the expansion of lexical meanings, their linguistic and stylistic features, and their role in conveying meaning in literary texts.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp102-110>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Terminlarining determinizatsiya hodisasiga uchrashi natijasida metafora va o'xshatishlarda qo'llanilishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

metafora,
o'xshatish,
determinatsiya,
ko'chma ma'no,
lingvistik metafora,
personifikatsiya,
sinesteziya,

Mazkur maqolada tilshunoslikdagi ko'chma ma'nolar, xususan, metafora va o'xshatishlar determinatsiyalash hodisasi asosida tahlil qilinadi. Muallif metaforaning turli shakllarini, jumladan, oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziyani misollar yordamida sharhlaydi. Xususan, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq terminlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi til ekspressivligini kuchaytirishi ta'kidlanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi metaforik birliklar o'rtasidagi o'xshashliklar va

¹ Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Namangan davlat universiteti.
E-mail: hushnoza.abduvohidova11@gmail.com

tafovutlar tahlil etiladi. Leksik birliklarning ma'no doirasi kengayishi, ularning lingvistik va stilistik xususiyatlari, hamda badiiy matnda ma'no anglatishdagi roli ochib beriladi.

Использование метафор и сравнений как результат детерминизации терминологических значений

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

метафора,
сравнение,
детерминизация,
переносное значение,
лингвистическая
метафора,
олицетворение,
синестезия,
термины сельского
хозяйства,
стилистика,
лексическая семантика,
узбекский язык,
английский язык.

В данной статье анализируются переносные значения в лингвистике, в частности, метафоры и сравнения, с позиции явления детерминизации. Автор объясняет различные виды метафор — такие как простая метафора, олицетворение и синестезия — с помощью наглядных примеров. Особое внимание уделяется образному использованию терминов сельского хозяйства и их роли в усилении экспрессивности языка. Также рассматриваются сходства и различия метафорических единиц в узбекском и английском языках. Исследуется расширение значений лексических единиц, их лингвистические и стилистические особенности, а также их роль в передаче смысла в художественных текстах.

KIRISH

Bizga ma'lumki, badiiy tasviriy vositalarning ifodalanishi bu berilayotgan ma'lumotning ko'chma ma'nolarini ochib berishga kattagina xizmat qiladi. Ko'chimlar deyilganda bizningcha, adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishinazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha chuqur o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'p adabiyotlarda "troplar" atamasi ostida o'rganilgan. B.O'rinboyev va R.Qo'ng'urolar [1] "Badiiy tekstning lingvistik tahlili qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasniflanganlar:

1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishga asoslangan troplar: a) giperbola, meyozis

2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya. Qolgan tasviriy vositalar esa mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: "simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa-metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet-metonimiyaning; antifraza, sarkazm-ironiyaning; litota-meyozisning ko'rinishlaridir". Har bir matnni lingvopragmatik tahlilga tortganimizda tasviriy vositalarning deyarli barchasi asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmashimiz kerak.

Ko'chma ma'no biror so'z leksik ma'nosi ifoda etayotgani bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo'lganligi uchun, uning nomida ifoda etilishi orqali yuzaga keladi. Ya'ni so'z leksik ma'nosi

ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma'no metafora deb ataladi. O'zbek tilshunoslari ko'chma ma'no yuzaga kelishini tasnif qilishda asosan A.A.Reformatskiy bilan hamfikrlik qilganlar. Faqat uch darslik mualliflari farqli qarash bilan chiqqanlar. R.A.Bigayev va P.A.Danilovlar [2] o'zlarining hamkorlikdagi darsliklarida ko'chma ma'no yuzaga keltiruvchi hodisalarning hammasini metafora deb ko'rsatganlar. O'zbek tilshunosligida ko'chma ma'nolarni o'rganish bo'yicha prof. M.Mirtojiyev, I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo'jayeva, Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. M.A.Hamroyev[3], H.Jamolxonov[4], R.Sayfullayevalar[5] o'zlarining o'quv qo'llanmalarida ma'no ko'chishini to'rt guruhga bo'lganlar.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ko'chma ma'noning keng tarqalgan turi metaforadir. O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi hamda ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi.

O'zbek tilshunosligida M.Mirtojiyev[6] metaforani o'xshatish belgisiga ko'ra guruhlariga ajratadi. O'zbek tilidagi lingvistik metaforalar ma'no ifoda etgan obyektlarning o'xshatilish holatiga ko'ra, yuqorida qayd etilganday, bir necha turga: oddiy metafora, personifikatsiya va sinteziyaga bo'linadi.

Oddiy metafora ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan obyekt o'ziga tog'ridan-to'g'ri o'xshash bo'lgan ikkinchi bir obyektни nomdosh qilib olishi bo'ladi. Shuning orqasida mazkur so'z ikkinchi obyektни ham ifoda etuvchi ko'chma ma'no orttiradi. Bu obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik ularning sirtqi belgisi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Masalan: ***o'z oyog'ingizga o'zingiz bolta qo'ymang, deyman! (A. Qodiriy, O'tgan kunlar)***. Mana shu keltirilgan gapda ham bolta so'zi o'zining ma'nosida emas ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lib, boltaning vaizfasini ko'chma ma'noda ifoda etilgan, ya'ni o'zingizga yomonlik tilamang, putur yetkizmang degan ma'no anglashiladi.

Savdo xodimi bo'lib ishlagan vaqtida Majid Qurbonovning nafs ildiziga bolta urilgan edi. Bu jumladan ham ya'ni barham bermoq ma'nosida qo'llanilgan.

Mening oyog'imga bolta urgan shu bo'ladi. Bu yerda ham shunchaki bolta urgan ma'nosida emas, barham bergan, tugatgan degani.

U zulm ildiziga bolta urdi. Bunda ham batamom tugatdi, barham berdi degan ma'nolari oddiy metafora natijasida hosil bo'ladi. O'ziga qiyoslanib, o'xshatilib qaralgan jonsiz obyektни nomdosh qilib olishi bo'ladi. Mazkur jonli va jonsiz obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik ham sirtqi belgi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Ammo bu o'xshashlik nomdosh bo'lib olgan obyektga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Sinesteziya ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan obyekt boshqa sezgi orqali his etiladigan ikkinchi bir obyekt (kishi subyektning umumlashtirishida o'ziga o'xshash bo'lgani uchun) nomdosh qilib olishidir. Buning orqasida mazkur so'z ikkinchi obyektни ham ifoda etuvchi ko'chma ma'noga ega bo'ladi.

Demak, oddiy metaforada belgilariga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiyada jonlantirish natijasida qiyoslash, sinestaziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.

Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Biz metaforaning yana ikki xil turini bilib olishimiz zarurdir. Bular: lingvistik metafora va xususiy-maullif metaforalar. Birinchisi, lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. M.Mukarramov [7] "Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajaganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin ular ifodalagan

nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi”. Bu turdagi metafora faqatgina ma’lum bir so’zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Qishloq xo’jaligi terminlari ham leksik birlik sifatida ko’chma ma’no ifodalab, nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Masalan, **arqon**

Arqon- zig’ir, kanop, nasha poyasi tolalaridan, ipdan yoki jundan eshib tayyorlangan, bog’lash uchun ishlatiladigan buyum; arg’amchi. Qil arqon, jun arqon, qanor arqon.

Bo’yniga **arqon solib olgan**. Bu yerda arqon so’zi ibora ichida kelgan bo’lib, oddiygina bo’yniga arqonni solib olish emas, o’zining aytganini qildiradigan qilib olgan degan ma’noni ifoda etadi.

Kumush do’stining kimligini bilib olish uchun **arqonni uzun tashlab qo’ygan** edi. Bu yerda ham ko’chma ma’noda ishlatilib no’jo’ya harakatini darrovigina aytish emas balkim o’ziga qo’yib berish degani.

Arqonni uzun tashlamoq, arg’amchiga qil mador kabi paremalarda ham uchraydi.

Ya’na bir misol keltirsak, **arra** so’zi bilan

Ortiqcha sutdan kelgan daromad jinoyatchilar o’rtasida **arra qilib kelingan**. Gazetadan.

Ro’zg’or arrasini barobar tortishib keladi. (Shuhrat, Umr pog’onalari)

Bu ikki jumladan ham tenglik ma’nosida kelgan, ya’ni teng bo’lishib olishgan.

Tesha so’zi bilan ko’chma ma’noda ifodalangan jumlar:

Bir necha qizimizning nomusini barbod etgan, xonadonlarni buzgan, mustahkam oyog’imizga **tesha urmoqchi bo’lgan iblisni** fosh qilib, sizni falokatdan qutqarib qolmoqchiman. (G’.G’ulom, Xalq hukmiga havola)

Bu ibora **oyog’iga bolta urmoq** shaklida ko’p uchraydi.

Ya’ni bu gapda ham oddiygina tesha urmoq ma’nosida emas, pand bermoq ma’nosida qo’llanilgan.

Tesha tegmagan gaplar. **Tesha tegmagan** yangilik.

Yusufjon qiziqning Oxunjon qiziq bilan qiladigan **tesha tegmagan** askiyalari va latifalari zalda gulduros qarsaklarga va kulgi ko’tarilishiga sababchi bo’ldi. (T.Obidov, Yusufjon qiziq)

Tikila turib, xayolida bir **tesha tegmagan** fikr uyg’ondi.

Bularda tesha tegmagan jumlasida-ilgari ishlatilmagan, eshitilmagan, butunlay yangi so’z, gap, fikr, xabar, yangilik va shu kabilar haqida fikr ochib berilgan.

Chumchuq semirib botmon bo’lmas,

Tesha o’sib ketmon bo’lmas.

Bunda esa imkonsizlik haqida gap borgan hisoblanadi.

Shu kungacha har ikki ishchi o’z vazifasini bajarib, sodda qilib aytganda, o’z aravasini tortib kelishgan. Bu gapda esa o’z ishini, tirikchiligini o’zi qilmoq deganidir.

O’roq so’zini olsak,

O’tganning o’rog’ini, ketganning ketmonini olmoq.

Bu maqolda shuni ko’rishimiz mumkinki, o’roq va ketmon so’zlari ko’chma ma’noda qo’llanilmoqda. Buning ma’nosi duch kelgan kishiga ozor bermoq, bezorilik qilmoq deganidir.

O’sha kezlari Burgut bosar-tusarini bilmay, medallarini jaranglatib, o’tganning o’rog’ini, ketganning ketmonini olib yurdi, - dedi chol. (S.Ahmad, Cho’l burguti)

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid yana ko'plab misollar ko'rishimiz mumkin, nafaqat asbob-uskunalarida balki, hayvonot olami, qishloq xo'jaligi mahsulotlarida ham ko'rishimiz mumkin:

Arpa yotsa, ombor sol – bunda esa arpaning yotishi nazarda tutilmagan, aksincha arpa shunchalar ko'p hosil bergani nazarda tutilmoqda, shuning uchun ombor qur deb ifoda etilgan.

Arpa ekan arpa olar, bug'doy ekan bug'doy olar – bunda esa kim nima qilsa shunga yarasha javob oladi. Yomonlik qilsa yomonlik qaytadi, yaxshilik qilsa yaxshilik oladi degani.

Eshakning yuki yengil bo'lsa, yotag'on bo'ladi – bunda esa dangasa insonlarga nisbatan ifodalangan. Ishyoqmas insonlarga ishini qancha yengil qilinsa, shuncha ishyoqmas bo'ladi.

Er- xotin – qo'sh ho'kiz.

Bu misolda uy-ro'zg'or ishlarini barvarar oila bekasi va turmush o'rtog'ining birgalikda qilishi nazarda tutilgan. Ho'kiz so'zi bu yerda kochma ma'noda ak etgan.

Ingliz tilidagi qishloq xo'jaligi asbob uskunolari bilan ishlatilgan metaforalarni ko'rishimiz mumkin:

Call a spade a spade – to call something by its right name; to speak frankly about something, even if it is unpleasant.

Buning ma'nosi esa oqni oq, qorani qora demoqdir. Ko'rib turganimizdek spade ya'ni o'z ma'nosida belkurak hisobalanadi, lekin bu joyda ko'chma ma'noda ifodalangan.

At the end of one' rope and at the end of one's tether – at the limits of one's endurance ya'ni o'zbek tilida poymonasi to'lmoq, sabr kosasi to'lmoq ma'nosiga to'g'ri keladi. Rope so'zi arqon hisoblanadi, bu yerda arqonning oxiri deb tarjima qilishimiz mumkin agar so'zma so'z tarjima qilsak. Ko'rganimizdek, yani hamma narsaning ham chek chegarasi bor deb ifodalamoqda.

Have an axe to grind with – to have a problem to discuss or settle with someone; to have a complaint against someone- muammoni qiyin yo'l bilan hal etish. Bunda bolta so'zini ishlatish orqali ifoda etilgan.

Big wheel – an important, powerful, or influential person- muhim inson. Bu yerda katta g'ildirak ishda muhim bo'lganligi uchun ishning ham katta bajaruvchisi borligi bilan ifoda etilmoqda.

Hard/ through row to hoe- a difficult task – qiyin vazifa. Bu ibora shuni ko'rsatadiki, qiyin ishlarni ketmon bilan bajarilganligi uchun, bu yerda uning ko'chma ma'nosi yoritilgan.

Axe – bolta so'zi bilan ingliz tilida berilgan metaforalarni ko'rib chiqsak,

The axe was the tool, and the rifle the weapon, of the early settlers; their business was to kill the wild beasts, to fight the savages, and to clear the soil; and the enthralling topics of conversation were the game and the Indians, and, as the settlements grew, the land itself.

Ushbu parcha erta ko'chmanchilarning asosiy vositalari va faoliyatini tavsiflaydi va ularning kundalik hayoti va ustuvorliklari haqida tushuncha beradi. Ma'no tahlili:

Bolta va miltiqlar asosiy vositalar sifatida:

Ushbu parcha boltani asbob sifatida belgilaydi, uning yerni tozalashdagi rolini va turar-joy bilan bog'liq turli vazifalarni ta'kidlaydi.

Unda omon qolishning amaliy jihatlari, jumladan ishlatiladigan asboblari va qurollar, shuningdek, ko'chmanchilarning yer va mahalliy xalqlar bilan o'zaro munosabatlari yoritilgan.

Parchada ilk ko'chmanchilarning omon qolish uchun asosiy qurol va qurollarga tayanishi, cho'l bilan shug'ullanishi va o'z turar-joylarini kengaytirgandan keyin rivojlanib borayotgan suhbatlari tasvirlangan. U erta Amerika ko'chmanchilarining tarixiy voqealari va ustuvorliklarining qisqacha tasvirini taqdim etadi.

Red and clotted, even the handle marked with bloody spots, the axe was theirs.

Keltirilgan misolda "Qizil va laxtalangan, hatto dastasi qonli dog'lar bilan belgilangan, bolta ularniki edi" iborasida, qonga bo'yalgan va qotib qolgan boltaning jonli va bezovta qiluvchi tasvirini gavdalantiriladi, hatto dastasi ham zo'ravonlikdan dalolat beradi. Bu ta'rif bolta ularga tegishli ekanligini bildiradi va undan foydalanish bilan bog'liq shafqatsiz yoki zo'ravonlik harakatlari tarixini ko'rsatadi. Tasvirlangan tasvir qonli yoki dahshatli tarzda ishlatilgan vositani ta'kidlab, uning dahshatli va bezovta qiluvchi tabiatini ta'kidlaydi. Ko'rib turganimizdek bolta va uning dastasi ham yomonlik uchun xizmat qilishi ta'kidlangan.

The red axe is left alone xviii. Bu misoldan biz shuni anglashimiz mumkinki, birinchi navbatda ya'ni bu bir kitob nomi yoki hikoya nomidir deb ko'z oldimizga kelishi mumkin. Iborani biz izolyatsiya yoki tark etish ma'nosida bo'lishi ham mumkin. Ya'ni "qizil bolta yolg'iz qoldi" yakkalanish yoki tark etish holatini anglatishi mumkin. Balkim bu yerda shaxsiy tanlov, sharoitlar yoki hikoyadagi burilish nuqtasi tufayli, qizil bolta tomonidan tasvirlangan qahramon yoki shaxs yolg'izlikni boshdan kechiradigan vaziyatni ifodalashi aytib o'tilgan bo'lishi mumkin. Yana bir ma'nosi, bu ibora hissiy izolyatsiya yoki begonalashishni ko'rsatishi mumkin. Qizil bolta introspektsiya, boshqalardan ajralish yoki ichki mojarolar bilan kurashish bosqichidan o'tishi mumkin. Shuningdek, majoziy ma'no yo'qotish yoki qizil bolta bilan ifodalangan xarakterning sezilarli o'zgarishini o'z ichiga olishi mumkin. "Yolg'iz qolish" qandaydir vaziyatlardan yoki munosabatlardan voz kechishni anglatishi mumkin.

Bu ibora metaforik tarzda o'zgarish yoki mustaqillikka intilishni ifoda mumkin. "Yolg'iz qolish" o'z-o'zini kashf qilish davrini yoki qizil bolta mustaqil ravishda qiyinchiliklar yoki mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan sayohatni ifodalashi mumkin.

Bu iborani ishlatilishi asar muallifining qay holatda harakterini ochib berishiga bog'liqdir, ya'ni qizil bolta deb berilishi ham bu yerda jarohatlanish, salbiy degan ma'nolarni ochib bermoqda.

Where I crossed the Bad Axe was a the battle ground where Gen. Dodge fought the Winnebago Indians.

Bu yerdagi misolda ham ya'ni ko'rsatilgan joyda janjal, to'qnashuv bo'lganligi haqida fikrlar keltirilgan. Yana ham to'laroq kontekst bilan ifoda etilsa, bu yerda qanday ma'no anglashilyotganligini osonroq anglab olishimiz mumkin.

Tahlillar davomida metafora haqida to'laqonli fikrlarga ega bo'ldik. Yana bir tushuncha metafora bilan yonma yon yuruvchi o'xshatishga to'xtaladigan bo'lsak, metafora bilan o'xshatishni ham ko'pincha birgalikda qo'shib yuboramiz. O'xshatishlar xalq milliy mentaliteti, olamning lisoniy manzarasidagi o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi muhim vosita, obrazli tafkkur natijasida paydo bo'lgan nutqni boyituvchi birlik sanaladi. O'xshatishlarda tilshunoslikdagi, adabiyotshunoslikdagi qator izlanishlar obyekt bo'lgan, ammo bu tadqiq hali ham davom etmoqda. O'xshatishda o'zining ifodolovchi maxsus

ko'rsatkichlari bo'ladi, so'zlar esa o'z ma'nosida ishlatiladi. Metaforada esa doimo so'zlar ko'chma ma'noda ifodalaniladi.

Qishloq xo'jaligi asbob-uskunalar bilan ifoda etilgan o'xshatishlarni tahlil qilsak, **“as sharp as an axe”** - “bolta kabi o'tkir”. Bu o'xshatishda boltaning o'tkirligi biror bir insonning xarakteriga yoki narsaga o'tkirligiga o'xshatiladi. Misol uchun, **“Uning zehni boltadek o'tkir edi”** desak, biz uning **aql-zakovati** yoki **tez va keskin tabiatliligi** bilan boltaning o'tkirligini taqqoslaymiz. Bu o'xshatish uning zukkoligi va ta'sirchanligini boltaning o'tkir uchi bilan bog'lash orqali ta'kidlaydi.

“His words fell on them like an axe, sharp and cutting”. — Uning so'zlarini boltaga o'xshatish ifoda etilgan. Bu o'xshatishda kimningdir so'zining ta'sirchanligi, boltaning **o'tkir va kesuvchi tabiatiga** qiyoslanadi. Bu so'zlar xuddi boltaning tez zarbasi kabi kuchli va hal qiluvchi ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Her criticism was as cutting as an axe, slicing through any semblance of confidence”. - “Uning tanqidi, ishonchning har qanday ko'rinishini kesib tashlagan bolta kabi edi”. deya ifoda etishimiz mumkin. Bu o'xshatishda tanqidning o'tkirligi va jiddiyligi boltaning **kesish harakati** bilan qiyoslanadi. Unda tanqid keskin bo'lgani va xuddi boltaning hal qiluvchi kuchiga o'xshab chuqur ta'sir o'tkazganligi haqidagi fikrni bildiradi.

“His determination was as relentless as an axe, hacking away at every obstacle in his path”. - Uning qat'iyati yo'lidagi har bir to'siqni sindirib tashlagan bolta kabi shafqatsiz edi. Bu yerda esa qat'iyatini boltaga qiyos etilgan.

“The storm hit with a force as fierce as an axe, tearing through the landscape”. - **Bo'ron boltadek shiddatli** kuch bilan urib, manzarani yorib yubordi. Ko'rib turganimizdek, bo'ronning tezligi va bolta tezligi o'rtasida qiyoslash ishlatilgan.

“Her words fell on him like an axe, brutally honest and impossible to ignore”. - Uning so'zlari uning ustiga bolta kabi tushdi, e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Keltirilgan jumladan ham o'z aksini ifoda etmoqda, bolta kabi o'ta keskir edi so'zlari deyilmoqda.

“The news hit me like an axe, severing my connection to the comfortable routine”. - Yangilik menga boltadek urilib, qulay tartib bilan aloqamni uzdi. Bu misolda esa boltaning tezligi va tezlik bilan ishni yakuniga yetkazish nazarda tutilgan.

“Her criticism was as sharp as an axe, cutting through the conversation with precision”. - Uning tanqidi boltadek o'tkir edi, suhbatni aniqlik bilan kesib tashladi. Bu yerda ham o'tkirlilik nazarda tutilmoqda.

“The news struck him as heavily as an axe, leaving him stunned”. Bu xabar unga boltadek qattiq tegdi va uni hayratda qoldirdi. Ya'ni boltaning qanchalik qattiq jarohat berish ifoda etilmoqda.

“The impact of the realization hit her like an axe, causing a sudden wave of emotion”. Tushunishning zarbasi unga bolta kabi urilib, to'satdan hissiyot to'linini keltirib chiqardi. Bunda ham keltirilgan ma'no ifodalanmoqda.

“His words were like an axe, chopping away at the foundation of their friendship”. Uning so'zlari do'stlik poydevorini kesib tashlagan boltaga o'xshardi.

“The teacher's gaze was as stern as an axe, cutting through the classroom's chatter”. O'qituvchining nigohi boltadek qattiq bo'lib, sinfdagi gaplarni kesib o'tdi.

“Her disappointment hit him as forcefully as an axe, leaving him speechless”. Uning hafsalasi pir bo'lganidan unga boltadek qattiq tegib, indamay qoldi.

“The unexpected news fell on her like an axe, shattering her sense of security”. Kutilmagan xabar uning boshiga boltadek tushib, xavfsizlik hissini buzdi.

"The harsh reality struck him like an axe, severing his illusions of invincibility". Qattiq haqiqat unga boltadek urildi, yengilmaslik haqidagi illyuziyalarini uzib tashladi.

"The supervisor's critique was as sharp as an axe, leaving no room for complacency". Nazoratchining tanqidi boltadek o'tkir bo'lib, xotirjamlikka o'rin qoldirmadi.

"His focus was as relentless as an axe, cutting through distractions with precision". Uning diqqat markazida chalg'itadigan narsalarni aniqlik bilan kesib o'tuvchi bolta kabi tinimsiz edi.

"The truth hit her like an axe, abruptly and painfully". Haqiqat unga bolta kabi, to'satdan va og'riqli urildi.

"The impact of the decision fell on the team like an axe, altering their plans drastically". Qarorning ta'siri jamoaga bolta kabi tushdi va ularning rejalarini keskin o'zgartirdi.

"The judge's verdict was as final as an axe, severing any hope of leniency". Sudyaning hukmi muloyimlik umidini uzib tashlagan boltadek qat'iy edi.

"Her gaze was as penetrating as an axe, cutting through the crowd with intensity". Uning nigohi olomonni shiddat bilan kesib o'tuvchi bolta kabi edi.

"The unexpected announcement struck the audience like an axe, leaving them in stunned silence". Kutilmagan e'lon tomoshabinlarga boltadek urilib, ularni hayratda qoldirgan sukunatda qoldirdi.

"The detective examined the crime scene like a hoe, carefully turning over each piece of evidence". Tergovchi jinoyat sodir bo'lgan joyni ketmondek ko'zdan kechirdi, har bir dalilni diqqat bilan aylantirdi.

"His dedication to the task was as steady as a hoe, breaking through challenges with persistent effort". - Uning topshiriqni bajarishga sodiqligi ketmondek barqaror edi, tinimsiz harakat bilan qiyinchiliklarni engib o'tdi.

"The farmer's diligence in the field was as rhythmic as a hoe, cultivating rows with precision". Dehqonning daladagi mehnatsevarligi ketmondek maromda edi, qatorlarni aniq ishlov berdi.

Tahlillar natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, ikki tilda ham ishlatilayotgan o'xshatishlar bir biriga o'xshashligi ko'pdir. Ifodalanayotgan harakatlari ifodalashda deyarli bir xil asbob-uskunalaridan foydalanilgan. Hamda, ushbu idiomatik iboralar bizning kundalik suhbatlarimizning muhim tarkibiy qismidir. Ular bizning xabarlarimizni aniq va ravshan qiladi. Ular nutqimizni nihoyatda boyitadi.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilingan misollardan shu xulosaga kelishimiz mumkinki, har bir o'xshatishda qishloq xo'jaligi terminlarining ko'rinishi, ularning harakatini insonlarga qiyoslab ifoda etmoqda. Har bir misolda, bir xislati orqali ifoda etilayotgan jarayon yoki narsani ochib berilmoqda. Bu orqali ham kitobxonnni yoki tushunarli bo'lishini oshirib bermoqda. Qishloq xo'jaligi terminlari faqatgina bir o'zining sohasini rivojlantirib qo'ymasdan, har bir soha rivojiga hissa qo'shib kelmoqda. Ularni ifoda etishida albatta uning kelib chiqishi va hayot tarzi o'rganilib keyingina, boshqa sohalarida talqin etishimiz mumkin deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.95.
2. Данилов П. А., Бигаев Р. И. Введение в языкознание. – Ташкент, 1954. – С. 12.

3. Hamroyev M. A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. –Toshkent, 2006. – B. 45.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 266-269.
5. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. – B. 108-110
6. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи. –Тошкент, 1973. – Б. 34.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Тошкент, 1976. – Б. 13.;
Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар. –Тошкент, 1997. – Б. 96.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati, " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashiryoti. –Toshkent, 2006. – B.103.